



Tashkent State University of Economics

JOURNAL OF INTERNATIONAL FINANCE AND ACCOUNTING

ISSN
2181-1016



BANKLARDA ISLOM MOLIYA MAHSULOTLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURATI

Tashmatova Nozima Rustam qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktranti

e-mail: tashmatovanozima@gmail.com

ORCID: 0009-0009-8894-5271

THE IMPORTANCE AND NECESSITY OF DEVELOPING ISLAMIC FINANCIAL PRODUCTS IN BANKS

Tashmatova Nozima Rustam qizi

Tashkent State University of Economics, PhD student

e-mail: tashmatovanozima@gmail.com

ORCID: 0009-0009-8894-5271

Annotatsiya: Hozirda rivojlanib kelayotgan, o'zining inklyuzivligi bilan ko'plab iste'molchi va tadbirkorlarni jalb qilayotgan islom moliya mahsulotlari mamlakatimizda rivojlanishi iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jahon moliya bozoriga chiqar ekanmiz, ham mahalliy ham jahon moliya bozorida o'z o'rnimizga ega bo'lishimiz, moliya muassasalari tomonidan beriladigan mahsulotlarning xilma-xilligi bilan importor, investor, yirik moliyaviy tashkilotlarni jalb qilamiz. Islom moliyasi esa hozirda nafaqat musulmon balki musulmon bo'lmagan qatlamni ham o'z adolatlilik, ishonchlilik va foydalilik tamoyillari bilan jalb qilmoqda. Aynan yuqorida keltirilgan sabablar mamlakatimiz banklarda islom moliya mahsulotlarini rivojlantirish zaruriyati va ahamiyatini uyg'otadi.

Kalit so'zlar: islom moliyasi, islom bankchiligi, qiyos, ijmo, mushoraka, murobaha, salam, suyuq, takafful.

Abstract: The development of Islamic financial products in our country, which are currently developing and attracting many consumers and entrepreneurs with their inclusiveness, has a positive impact on

economic growth. As we enter the global financial market, we attract importers, investors, and large financial organizations with our position in both the local and global financial markets, and the diversity of products provided by financial institutions. Islamic finance is currently attracting not only Muslims, but also non-Muslims with its principles of fairness, reliability, and profitability. It is precisely the reasons listed above that raise the need and importance of developing Islamic financial products in our country's banks.

Keywords: Islamic finance, Islamic banking, qiyas, ijma, musharaka, murabaha, salam, sukuk, takafful.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy munosabatlarda muqobil moliya tizimlaridan foydalanish, ularda mavjud mahsulotlardan foydalanish, har ikki tomon zarar ko'rmaydigan tizimni yaratsih muhim hisoblanadi. Islom moliya tizimi ham hozirda juda ko'p talabda ega, o'zining adolatlilik, tenglilik, foydalilik kabi tamoyillari bilan nafaqat musulmon balki musulmon bo'lmagan davlatlarni ham o'ziga jalb qilib kelmoqda.


Islom moliyasi o'zining kelib chiqishi, rivojlanishi va qo'llanilishi bilan yaqin 50-

60 yil boshlangan desak, aslida uning poydevori islom dini kirib kelishi bilan bog'liq hisoblanadi. Islom moliyasining asosi quyidagi to'rt manbaadan iboratdir o'n to'rt asr oldin nozil qilingan Qur'on kitobida mavjud moliyaviy munosabatlar, hadislar to'plamida kelgan munosabatlar, ijmo (mujtahid olimlarning bir masaladagi

yechimi) va qiyos(qiyoslash orqali yechim topish) (1-rasm).

ISLOM MOLIYASINING ASOSIY MANBALARI

Islom moliyasining asosi to'rt manbadan iborat bo'lib, bular moliyaviy munosabatlarni belgilovchi bosh manbalardir.



Ushbu to'rt manba islom moliyasining nazariy va amaliy asosini tashkil etadi hamda barcha moliyaviy amaliyotlar shu manbalar asosida belgilanadi.

1-rasm. Islom moliyasining asosiy manbaalari¹

¹ Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Yuqoridagi rasmdan shuni tahlil qilsak bo'ladiki, o'n to'rt asr yozilgan kitob va hadislar to'plami hozirgi kunda mavjud ayrim moliyaviy munosabatlarni o'z ichiga olmasligi mumkin. Shunday paytta, olimlarning bir masala bo'yicha bergan yakdil xulosasi, ya'ni ijmo, yoki bir masalani qiyoslash, taqqoslash orqali berilgan fatvo (qiyos) islom moliya tizimini huquqiy asosi desak bo'ladi.

Shuni aytish joizki, mamlkatimizda islom moliyasini iqtisodiyotimizga olib kirish 2004-yilda, Islom taraqqiyot bankiga a'zolikdan boshlangan. Ammo, so'ngi 20 yil ichida islom moliyasini rivojlantirish uchun aniq chora tadbirlar bo'lmagan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2020-yilda Oliy Majlisga qilgan murojatnomasida islom moliyasini O'zbekistonga olib kirish vaqti kelgani va bu uchun shart-sharoitlar yaratilishini ta'kidladi. Keying bosqich esa, "O'zbekiston-2030" strategiyasi orqali Yangi O'zbekistonda amalga oshiriladigan maqsada va vazifalar aholining ijtimoiy, iqtisodiy, ma'daniy, sog'liqni saqlash kabi keng ko'lamli sohalarni rivojlantirish orqali ularning farovonlik darajasini oshirish maqsad qilib qo'yilgan. Aynan shu, maqsadlar ichida, 50-maqsad islom banklarining kamida 3 tasi 2030-yilga qadar mamlakatimizga kirib kelishi rejalashtirilmoqdaligi belgilangan. Eng katta o'zgarish esa, 2026-yil 27-mart kuni "O'zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Yuqoridagi keng ko'lamli jarayonlar islom moliya mahsulotlari rivojlanishiga, belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Keng ko'lamdagi o'zgarishlarga qaramay, iste'molchilar va moliya muassasalari uchun islom moliya

munosabatlarini ishonarlik o'rnatish qiyinchilik ko'rsatayapti. Iste'molchilarning tashkilot o'rtasidagi shartnomalarning ba'zi ko'zda tutilmagan o'zgarishlar sabab zarar ko'rishi islom moliya mahsulotlarini talabini keskin tushurib yuborayapti. Maqola bank va nobank sohasida islom moliya instrumentlarini rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyati va zaruratini aniqlash hamda tavsiyalar ishlab chiqadi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda bank va nobank moliya tashkilotlarida islom moliya instrumentlarini rivojlantirishning ahamiyati va zaruratini o'rganishda ilmiy bilishning turli usullaridan foydalanildi. Xususan, islom moliyasi va an'anaviy moliya tizimiga oid ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-statistik tahlil, guruhlash hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Shuningdek, islom moliya instrumentlarining bank va nobank moliya institutlaridagi qo'llanilish amaliyoti xalqaro tajriba asosida o'rganilib, ularning iqtisodiy samaradorligi va moliyaviy inklyuziyani oshirishdagi o'rni qiyosiy tahlil qilindi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotda quyidagi olimlarning ilmiy ishlari o'rganib chiqildi. Shayx Muhammad Taqi Usmoniy, Doktor Mabid Ali Al-Jarhi, Mahmoud A. El-Gamal, Ahmet Aysan va Ibrahim Musa Unal, Adil Saleem va hammualliflar, Muhammad Nouman va Karim Ullah, Ruhiddin Zayniddinov, Nodirbek Obidov. Olingan natijalar asosida islom moliya instrumentlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

NATIJALAR

Islom moliyasi yildan yilga o'sib borishi, uning foydalilik, ishonchliyligi

yuqori ekanligidan darak beradi. Xatto, islom moliyasi 2020-yilda yuz bergan COVID-19 virusi pandemiya davrida deyarlik zararga kirmagan. Buning eng birinchi va asosiy sabablaridan biri islomiy moliyaviy munosabatlar qurilayotganda foyda ham, zarar ham iste'molchi va moliyaviy muassasa o'rtasida tuzilgan shartnomada teng taqsimlanadi. islomiy banklar va an'anaviy banklar o'rtasidagi

asosiy farq moliyaviy operatsiyalarning iqtisodiy mohiyatida namoyon bo'ladi. An'anaviy banklarda foiz asosiy daromad manbai bo'lsa, islomiy banklarda foyda real aktivlar, savdo va sheriklik asosidagi bitimlardan shakllanadi. Shu sababli islomiy banklar risklarni taqsimlash, aktivlar bilan ta'minlangan moliyalashtirish va axloqiy investitsiya tamoyillari bilan ajralib turadi.

1-jadval. An'anaviy va islom banklarining farqlari.²


№	Mezoni	Islomiy banklar	An'anaviy banklar
1	Daromad manbai	Daromad savdo, ijara, sheriklik va investitsiya faoliyatidan olinadi (murabaha, musharaka, mudaraba va boshqalar).	Daromadning asosiy manbai foiz (interest) hisoblanadi.
2	Foiz (Ribo)	Foiz olish va to'lash taqiqlanadi.	Kredit va depozit operatsiyalari foiz asosida amalga oshiriladi.
3	Risklarni taqsimlash	Bank va mijoz foyda hamda zararni o'zaro taqsimlaydi.	Riskning asosiy qismi qarz oluvchi zimmasiga yuklanadi.
4	Mijoz bilan munosabat	Hamkorlik (shariklik) munosabatlariga asoslanadi.	Kreditor-qarzdor munosabatlariga asoslanadi.
5	Moliyalashtirish asosi	Har bir operatsiya real aktiv yoki xizmat bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.	Pulning o'zi ham daromad keltiruvchi tovar sifatida qaraladi.
6	Investitsiya siyosati	Shariatga zid bo'lgan sohalarga (alkogol, qimor, tamaki va boshqalar) investitsiya kiritilmaydi.	Qonunchilik ruxsat bergan barcha sohalarga investitsiya kiritilishi mumkin.
7	Daromad kafolati	Foyda oldindan kafolatlanmaydi, investitsiya natijasiga bog'liq.	Foiz stavkasi oldindan belgilanadi va kafolatlanadi.
8	Nazorat tizimi	Shariat kengashi tomonidan nazorat qilinadi.	Markaziy bank va moliyaviy regulyatorlar tomonidan nazorat qilinadi.

² Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Yuqoridagi jadvaldan shuni ko'rish mumkinki, islom bankchiligi, islom moliyasi ko'p hollarda sheriklikka asoslangan. Loyihadan tushadigan foyda ham zarar ham sheriklar o'rtasida teng taqsimlanishi iste'molchilarni ko'proq jalb qiladi. Misol qilib olsa, kichik va o'rta biznes vakillari banklarda o'z aktivlarini kengaytirish uchun pul mablag'larini jalb qilsa, asosan, banklar uning qaytarishligiga o'z ahamiyatini beradi. Islomiy bankchilikda esa har bir jalb qilingan pul mablag'lari qaytarishlikka emas, foyda ko'rishlikka, xuddi investitsion loyiha sifatida ko'riladi. Zarar ko'rsa islomiy bank ham zararni ma'lum qismini o'ziga oladi. Mana shu shartlarning o'zi endigina ish boshlamoxchi bo'lgan tadbirkorlarni, start up, iste'molchilarni jalb qiladi. Pul shunchaki dastak sifatida qaraladigan bu moliya tizimi mana shu inklyuzivligi bilan mamlakatimizga kirib kelishi aholining bo'sh pul mablag'larini jalb qilishga asos bo'la oladi. O'zbekiston Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2026 yildan boshlab mamlakatda islomiy moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish uchun huquqiy asos yaratildi. Mazkur tizim doirasida banklar to'liq islom banklari sifatida yoki an'anaviy banklar tarkibida "islomiy darcha" (Islamic Window) shaklida faoliyat yuritishi mumkin. Hozirgi kunda 10 dan ortiq tijorat banklari islom moliyasi mahsulotlarini joriy etishga tayyorgarlik ko'rmoqda. O'tkazilgan

tadqiqotlar mamlakatda islom moliyasiga talab yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Jumladan, BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) ma'lumotlariga ko'ra, aholining 68 foizi va biznes vakillarining 60 foizi diniy qarashlari sababli an'anaviy bank xizmatlaridan to'liq foydalanmaydi. Bu esa islom bankchiligi xizmatlariga katta ehtiyoj mavjudligini anglatadi, Islom moliyasining dastlabki natijalari mikromoliya sektorida ham kuzatilmoqda. 2026 yilning birinchi choragida O'zbekistonda islomiy mikromoliyalashtirish hajmi **11,2 milliard so'mni** tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **8 baravar oshgan**. Ushbu hajmning **69 foizi murabaha, 19 foizi mudaraba** va **12 foizi ijara** bitimlari hissasiga to'g'ri kelgan. Yuqoridagi ma'lumotlar O'zbekistonda islom bankchiligi rivojlanishi uchun katta bozor salohiyati mavjudligini ko'rsatadi. Aholi va tadbirkorlarning an'anaviy moliyaviy xizmatlardan foydalanishdagi cheklovlari, xorijiy investorlarning qiziqishi hamda islomiy moliyalashtirish hajmlarining o'sishi bank va nobank moliya tashkilotlarida islom moliya instrumentlarini rivojlantirish iqtisodiy jihatdan zarur ekanligini tasdiqlaydi. Islom bankchiligi islom moliyasining eng ko'p aktivlariga ega segment hisoblanib, uning dunyo bo'yicha ulushini quyidagi rasm orqali ko'rsak bo'ladi.

Islamic finance industry breakdown by sector and asset class (2024)



2-rasm. Islom moliyasi aktivlari tarmoqlar kesimida.


2-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yil yakunida global islom moliyasi sanoati aktivlari hajmi qariyb 6 trillion AQSh dollariga yetgan. Tarmoq tarkibida eng katta ulushni islom bankchiligi egallab, uning aktivlari 4,3 trillion AQSh dollarini yoki jami islom moliyasi aktivlarining 72 foizini tashkil etgan. Bu holat islom bankchiligi islom moliya tizimining asosiy va yetakchi segmenti ekanligini ko'rsatadi.

Ikkinchi yirik segment sukuk bozori bo'lib, uning hajmi 1 trillion AQSh dollariga

yetgan va jami aktivlarning 17 foizini tashkil qilgan. Shuningdek, islom investitsiya fondlari aktivlari 308 milliard AQSh dollari (5%), boshqa islom moliya institutlari aktivlari 193 milliard AQSh dollari (3%) va takaful sektori aktivlari 136 milliard AQSh dollari (2%) miqdorida qayd etilgan.

O'zbekistonga ayanan nima sababdan islom bankchiligini jalb qilish zarur deganda, islom bankchiligining o'sish sur'atlarini va 2029-yilda berilgan prognozni ko'rsak bo'ladi. (3-rasm)

Islamic banking assets growth (US\$ billion, 2018 - 2024)



3-rasm. Islom bankchiligining aktivlar o'sish sur'ati.(milliard AQSh dollari)

Islom bankchiligining tez sur'atlarda va boshqa tarmoqlardan farqli katta foyda bilan chiqishi unda mavjud mahsulotlarning xilma xilligi bilan o'lanishi mumkin. 6 yil ichida 4 marta oshgan va aktivlar hajmi 4,318 milliard dollarga teng kelgan bu tarmoq mamlakatimiz aholisini ham jalb qila oladi. Etiqodi tufaylik ko'p inson an'anaviy banklarga murojat qilmaydi. Islom bankchiligi esa bu masalaning yaqqol yechimi bo'lib qoladi.

Mamlakatimizda bu ko'rsatkichlar, ya'ni islom moliya mahsulotlariga bo'lgan talab qanday ko'rinishdiligini ko'rsak:

61% tadbirkorlar: IFC (Xalqaro moliya korporatsiyasi) o'tkazgan tadqiqotlarga ko'ra, O'zbekistondagi kichik va o'rta biznes (SME) subyektlarining qariyb 61 foizi diniy e'tiqod va foiz (ribo) sababli an'anaviy bank kreditlaridan foydalanmasligini yoki faqat chorasizlikdan foydalanishini bildirgan.

75% aholi: So'rovnomada qatnashgan jismoniy shaxslarning 75 foizga yaqini agar

mamlakatda islomiy bank xizmatlari ko'rsatilsa, ulardan faol foydalanishga tayyorligini ta'kidlagan.

Moliyaviy qamrovdan tashqaridagi kapital: Jahon bankining Global Findex ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda kattalar aholisining sezilarli qismi (turli yillarda 50-60% gacha) rasmiy bank tizimidan tashqarida qolmoqda. Bunga iqtisodiy sabablardan tashqari, aynan diniy omillar ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu esa milliardlab so'mlik bo'sh mablag'lar iqtisodiyotga investitsiya bo'lib kirmasdan, "yostiq tagida" yotganini anglatadi.

Milliard dollarlik portfel: Islom taraqqiyot banki (ITB) tomonidan O'zbekistonda infratuzilma, energetika, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligini rivojlantirish loyihalariga ajratilgan va tasdiqlangan loyihalar portfeli 2.5-3 milliard dollardan oshadi.

Tijorat banklaridagi islomiy darchalar (Islamic Windows): Hozirgi kunda ITB tarkibidagi korporatsiyalar O'zbekistondagi



10 dan ortiq tijorat banklariga (masalan, Aloqabank, Turonbank, Qishloq qurilish bank / Biznesni rivojlantirish banki va boshqalar) jami sotish va moliyalashtirish liniyalari ajratgan. Bu mablag'lar an'anaviy kredit emas, balki islomiy savdo tamoyillari asosida kichik va o'rta biznes loyihalariga yo'naltirilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, islom bankchiligi zamonaviy moliya tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning asosini foizsiz moliyalashtirish, risklarni adolatli taqsimlash va real aktivlarga asoslangan operatsiyalar tashkil etadi. Jahon amaliyotida islom banklari islom moliyasi aktivlarining qariyb 72 foizini shakllantirayotgani ushbu sektorning moliyaviy tizimdagi yetakchi o'rnini tasdiqlaydi.

O'zbekistonda ham islom bankchiligi xizmatlariga talab yuqori bo'lib, tadqiqotlar aholining muayyan qismi va tadbirkorlarning an'anaviy moliyaviy xizmatlardan diniy sabablarga ko'ra foydalanmayotganligini ko'rsatmoqda.

Shu sababli islom bankchiligi instrumentlarini bank va nobank moliya tashkilotlari faoliyatiga joriy etish moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, aholi va biznes subyektlarining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish hamda qo'shimcha investitsiyalarni jalb etishda muhim omil hisoblanadi.

Bundan tashqari, islom bankchiligining rivojlanishi mamlakatda moliya bozorining diversifikatsiyasiga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga hamda iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda islom bankchiligi bo'yicha huquqiy bazani takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash va yangi islom moliya mahsulotlarini amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr. – URL: President.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: Lex.uz.
3. Usmani, M.T. *An Introduction to Islamic Finance*. – Karachi: Maktaba Ma'ariful Qur'an, 2002. – P. 18–22.
4. Al-Jarhi, M.A. *The Philosophy of Islamic Banking and Finance: Philosophical Underpinnings*. – Brunei: IRTI & University of Brunei, 2005. – P. 12–16.
5. El-Gamal, M.A. *Islamic Finance: Law, Economics, and Practice*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – P. 1–3.
6. Nouman M., Ullah K. *Participatory Islamic Finance: Ideals, Contemporary Practices, and Innovations*. – Singapore: Palgrave Macmillan, 2023. – P. 16–18.
7. Aysan A., Unal I.M. *The Institutionalization of Islamic Finance: Historical Context, Current Developments, and Future Directions* // SSRN Electronic Journal. – 2024. – P. 5–7.
8. Saleem A., Daragmeh A., Zahid R.M.A., Sági J. Financial Intermediation through Risk Sharing vs Non-Risk Sharing Contracts // *Environment, Development and Sustainability*. – 2024. – Vol. 26. – P. 11328–11332.
9. Asadov A., Zayniddinov R. O'zbekistonda tadbirkorlarning islom moliyasidan foydalanish niyatlariga undovchi omillarning empirik tadqiqi // *Iqtisod va moliya*. – 2024.
10. Obidov N. O'zbekistonda islom moliyasini joriy etishning huquqiy va institutsional asoslari: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar // *Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar*. – 2025. – B. 288–299.
11. ICD–LSEG. *Islamic Finance Development Report 2025*. – P. 28.
12. [Islamic Development Bank \(IsDB\) rasmiy sayti](http://IslamicDevelopmentBank.org).